



**TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISH VA
UNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI**

Orimbaeva Shahnoza Jumanbek qizi

Qaraqaloq davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası

“Iqtisodiyot” sohasi 1- kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatidagi korxonalarda strategik rejalashtirish jarayonining mazmuni hamda uning korporativ boshqaruv tizimidagi roli yoritilgan. 2025-yil statistikasi asosida to'qimachilik eksporti va ichki ishlab chiqarish holati tahlil qilinib, korxonalarda uzoq muddatli maqsadlar belgilash va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Korporativ boshqaruv orqali strategik qarorlar qabul qilishda resurslar, innovatsiyalar va klaster tizimining o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, strategik rejalashtirish, korporativ boshqaruv, eksport salohiyati, klaster, innovatsiyalar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность стратегического планирования на предприятиях текстильной промышленности и его роль в системе корпоративного управления. Проанализированы возможности достижения долгосрочных целей, эффективного использования ресурсов и повышения конкурентоспособности благодаря стратегическому планированию. Также исследованы организационно-экономические механизмы принятия стратегических решений в рамках корпоративного управления и предложены практические рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, стратегическое планирование, корпоративное управление, организационно-экономический механизм, эффективность управления, стратегические цели, использование ресурсов, конкурентоспособность, производственная политика, инновационное развитие.

Annotation: This article examines the essence of strategic planning in textile enterprises and its role within the corporate governance system. It analyzes how long-term objectives, efficient resource use, and competitiveness can be achieved through proper strategic planning. The article also explores organizational and economic mechanisms for making strategic decisions under a corporate governance framework and provides practical recommendations for their improvement.

Keywords: Textile industry, strategic planning, corporate governance, organizational and economic mechanism, management efficiency, strategic goals, resource utilization, competitiveness, production policy, innovation development.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, har yili yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. 2025-yil yanvar-fevral oylarida yasal to'qimachilik mahsulotlari eksporti 403,7 million AQSh dollarini tashkil etdi va bu umumiy





eksportning 8,7 foiziga teng bo'ldi. Bunday o'sish strategik rejalashtirish va korporativ boshqaruv tizimining rivojlanishini taqozo etadi.

Strategik rejalashtirish – bu korxonani uzoq muddatli rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish, tashqi va ichki muhitni baholash, resurslardan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshlikni oshirish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

To'qimachilik korxonalarida strategik rejalashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: Eksport bozorlarini tahlil qilish va diversifikatsiyalash; Mahsulot assortimentini kengaytirish; Zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni joriy etish; Mehnat unumdorligini oshirish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish.

Korporativ boshqaruv bu — korxona faoliyatini strategik boshqarish, samarali rahbarlik va muvofiqlashtirilgan qaror qabul qilish tizimidir. Strategik rejalashtirish aynan mana shu tizimda muhim o'rin tutadi, chunki: Kengashlar va direktorlar faoliyatini strategik maqsadlar bilan bog'laydi; Resurslar taqsimotini ilmiy asosida tashkil qiladi; Risklarni boshqarish, ichki nazorat va audit tizimlari orqali barqarorlikni ta'minlaydi. 2025-yil holatiga ko'ra, ko'plab to'qimachilik korxonalari klaster shaklida faoliyat yuritmoqda. Bu esa korporativ boshqaruvni kuchaytirib, umumiy strategik rejalashtirishga imkon yaratmoqda.

O'zbekiston hukumati 2025-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, paxta xomashyosidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq zanjirni qamrab oluvchi 200 dan ortiq klaster korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy strategik maqsadlari:

Tayyor mahsulot ulushini 70 foizga yetkazish; Yevropa va AQSh bozorlariga kirish; Brending va marketing strategiyalarini kuchaytirish. Bu jarayonda har bir korxona o'z strategik rejasini ishlab chiqishi, investitsiyalarni jalb etish, xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish va barqaror boshqaruv tizimini shakllantirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilgi rivojlanish holati to'qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruv va strategik rejalashtirishni yangicha yondashuvlar bilan takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Uzoq muddatli va tizimli yondashuv korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Paydalanilgan ádebiyatlar

1. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович ТЕНДЕНЦИИ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕГИОНА //Бюллетень науки и практики. 2021. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-i-prioritetnye-napravleniya-razvitiya-promyshlennosti-regiona> (дата обращения: 11.12.2024).

2. Kalmuratov, B. S. "The current state of innovative development of the construction industry of the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science,(02 (82)), 455-463." 2020,



3. Kalmuratov B. S. Statistical analysis of the development of industrial production management in the region of the Republic of Karakalpakstan //Journal of Advanced Zoology ISSN. – С. 0253-7214.

4. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Бектурдиев Максет Бекбергенович
ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ В
КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ИНДУСТРИИ // Бюллетень науки и
практики. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoy-strategii-razvitiya-v-konkurentnoy-srede-stroitelnoy-industrii> (дата обращения: 11.12.2024).